IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

XALQ ERTAKLARI VA ZAMONAVIY BOLALAR PSIXOLOGIYASI: RAQAMLI DAVRDA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Erbo‘tayeva Nozanin Utkirovna
Samarqand davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada hozirgi kunda raqamli texnologiyalarning bolalar hayotida chuqur kirib kelishi munosabati bilan xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati yangicha talqin etilgan. Tadqiqotda ertaklarning bolalar psixik rivojlanishiga ta’siri ,ularning tasavvurini,axloqiy qadriyatlarini va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Raqamli vositalar va an’anaviy ertaklar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zaruriyati takidlangan.

Kalit so‘z: xalq ertaklari ,raqamli texnologiyalar, bolalar psixologiyasi, tarbiyaviy ahamiyati, tasavvur , axloqiy qadriyatlar, boshlang‘ich ta’lim, maktabgacha ta’lim.

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalarida chuqur kirib kelmoqda. Ta’lim sohasida bu jarayon yanada faol kechmoqda ,chunki kelajak avlodni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalash va ularga bilim berish uchun innovatsion yondashuvlar zarur[1]. Ayniqsa, o‘rta ta’lim bosqichi bolaning shaxsiyati va nutqiy qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga o‘ra ,7-9 yoshli bolalar kuniga o‘rtacha 2 soatdan prtiq vaqtini ekran oldida o‘tkazadi. Bu esa ularning tasavvuriy fikrlash , ijodiy qobiliyatlar va axloqiy qadriyatlar shakllanishiga ta’sir etishi mumkin. Xalq ertaklari asrlar davomida bolalarni tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri bo‘lib kelgan. Ular insoniy qadriyatlar, yurtsevarlik, do‘st-birodarlik, mehnatsevarlik kabi muhim tushunchalar mujassam etilgan [2].

Har bir davrga hamnafas bo‘lib , ertaklar zamonaviy sharoitda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mazkur maqolaning maqsadi –xalq ertaklarining raqamli davrda bolalar psixik rivojlanishiga ta’sirini tahlil qilish,ularning tarbiyaviy salohiyatini ilmiy asoslash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Xalq ertaklarining psixologik ta’siri,tasavvurni rivojlantirishdagi roli. Ertak eshitayorgan bolaning og‘zi va fikrlash doirasi faol ishlaydi,o‘zicha tasavvur qiladi- bu esa bolaning fikrlash qobiliyatini kenggaytirishga juda katta samara beradi[3]. Ertaklardagi sehrli voqealar, g‘ayriytabiiy qahramonlar bolaning tasavvurini boyitadi. Masalan “Zumrat va Qimmat” ertagidagi sehrli tosh, gapiruvchi hayvonlar bola zehnini faollashtiradi.

Psixologlar ta’kidlaydiki, tasavvur faoliyati bolaning tashqi dunyoni anglashida hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi.

Ertaklar eshitish jarayonida bola:

- Hikoya qahramonlarini o‘z hayotida gavdalantiradi;
- Voqea joylarini tasavvur qiladi;
- Qahramonlarning his-tuyg ‘ularini o‘zi sezadi;
- Syujet rivojlanishiga boshqarishga harakat qiladi.

Bu jarayon bolaning neyron aloqalarini kuchaytirib ,uning kreativ fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, xalq ertaklari o‘zida tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar, yurtsevarlik, do‘st-birodarlik,mehnatsevarlik kabi muhim tushunchalarni mujassam etgan[4]. Ertaklardagi yaxshilik-yomonlik, halollik –xaromlik kurashi bolaga odob-axloq dasturini taqdim

etadi. Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki ularda yilning to‘rt fasli, tabiati, mehnat, do‘stlik, oilaviy munosabatlar kabi tushunchalar mujassam etilgan [5].

Bolalar ertaklar orqali;

- Yaxshilikning g ‘olib kelishiga ishonch hosil qiladi;
- Mehnatsevarlik,sabr-toqatlik kabi fazilatlarni o‘rganadi;
- Ota-ona , aka-uka ,opa-singillarga hurmatni anglaydi;
- Halol mehnatning mukofotlanishini tushunadi.

Salbiy va ijobiy qahramonlarni farqlash ko‘nikmasi,ertaklarda doim ikki qutb mavjud: yaxshilik va yomonlik. Bola bu qahramonlik xarakatlarini tahlil qilib, qaysi xulq-atvor to‘g‘ri ekanligini o‘rganadi. Bu bolaning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Ertaklar va raqamli vositalar. Ertak eshitish va multfilm ko ‘rish : farqlar. Ertak eshitish jarayonida bola o‘z hayolida qahramonlarni gavdalantiradi bu fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Multfilm esa tayyor tasvirni beradi,bu esa bolaning tasavvurini cheklashi mumkin[6].

Ko‘rsatkich	**Xalq ertaklari**	**Raqamli multfilmlar**
Tasavvur faoliyati	Yuqori, bola o‘zida tasavvur qiladi	Past, tayyor tasvir beriladi
Fikrlash qobiliyati	Faol tahlil, mushohada yuritish	Passiv qabul qilish
Emosional ta’sir	Chuqur, shaxsiy	Yuzaki, umumiy
Axloqiy xulosa	Bola o‘zi xulosa chiqaradi	Tayyor xulosa beriladi
Nutq rivojlanishi	So‘z boyligi va ifoda vositalari boyiydi, dialog rivojlanadi	Cheklangan

Raqamli resurslarning ijobiy tomonlari. Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta’lim jarayoniga yangi imkoniyatlar ochib beradi [7]. Interaktiv o‘yinlar , audiovisual materiallar va mobil ilovalarning samaradorligi sezilarli darajada yuqori, tadqiqotlar ko‘rsatadiki, raqamli hikoya qilish vositalaridan foydalangan holda ertaklarni qayta hikoya qilish mashqlarida o‘quvchilarning 87% i asosiy hikoya komponetlarini aniqlay olgan va original talqinlarni taqdim etgan, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich atiga 54%ni tashkil etgan [8].

Raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish, raqamli vositalardan haddan tashqari ko‘p foydalanish bolalarning jismoniy va psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Past sifatli yoki pedagogik jihatdan noto‘g‘ri tuzilgan raqamli maxsulotlar bolaning ta’limiy rivojlanishiga zarar yetqazishi mumkin.

Zamonaviy ta’lim tizimida ertaklardan foydalanish, dars jarayonlarida ertaklarni qo ‘llash. Boshlang‘ich ta’limda ertaklarni o‘qitishning maqsad va avzifalari keng[9]:Bolalarda adabiy tushunchalarni shakllantirish ,til boyligini oshirish,ijodiy fikrlashni rivojlantirish,axloqiy-estetik tarbiya berish. Ertaklarni sahnalshtirish bolalarning: ijodiy qobiliyatlarini, muloqot

ko‘nikmalarini, hamkorlikda ishlash mahoratini rivojlantiradi. Ertaklarni talqin qilish bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Nega qahramon shunday qildi?, Agar men uning o‘rnida bo‘lsam…kabi savollar bolani fikrlashga majburlaydi.

Xalq pedagogikasida ertaklarning o‘rni milliy qadriyatlarni yetkazish vositasi. Xalq ertaklari milliy qadriyatlarni axloddan-avlodga o‘tkazishning muhim vositasidir. Ularda yurtsevarlik tuyg‘usi, oilaviy an’analar , milliy odat-urflar aks etgan.Ertaklar bolalarning so‘z boyligini boyitadi, tilning ifoda vositalarini o‘rganishga yordam beradi, To‘qson to‘rt turdosh qushlar, Olti oltin tilli, Yetti dunyoni aylab kelgan kabi ifodalar bolaning tiliy tafakkurini rivojlantiradi. Ertakalr orqali bolalar do‘stlikni qadrlash, hamkorlikda ishlash ,adolat talab qilish,boshqalarning fikrini hurmat qilishni o‘rganadi.

XULOSA

Xalq ertaklari raqamli davrda ham o‘z tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotgan. Ular bolaning taavvurini,a xloqiy qadriyatlarini ,nutqiy kompetensiyasini va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda unikal vosita bo‘lib qolmoqda.Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonida yangi imkoniyatlar ochib berar ekan ,ularni xalq ertaklari bilan muvozanatlashgan holda qo ‘llash zarur. Interaktiv vositalar ertaklarni tushunishga yordam bersa-da ,ular tasavvur faoliyatini almashtirib yubormasligi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Комилова Ш.И. Мактабгача ёшдаги болаларнинг нутқий компетенцияларини ривожлантиришда рақамли технологияларнинг ўрни // Inter education & global study. 2025. №1. Б.266–273.
2. Абдурахимова Д.А. Мактабгача ёшдаги болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда эртак — тарбия воситаси сифатида // Халқ таълими. 2020. №2. Б.91-93.
3. Абдурахимова Д.А. Халқ оғзаки ижоди — топишмоқлар воситасида бошлангич синф ўқувчиларининг фикрлаш қобилятини ўстириш // Педагогик таълим. 2008. №3. Б. 10-11.
4. Абдурахимова Д.А. Халқ педагогикаси миллий қадрият сифатида // Таълим муаммолари. 2013. №1. Б. 29-30.
5. Тўраева С.С. Таълим тизимида ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини шакллантириш усуллари // Замонавий таълим. 2016. №4.
6. Виготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. М.: Просвещение, 1991.
7. Пренски М. Цифровые аборигены, цифровые иммигранты // On the Horizon. 2001. №9.
8. Сабирова Г.Ғ. Рақамли ресурслар асосида ертак ва шеърий матнларни ўқитшнинг инновацион усуллари // Neliti media publications. 2024.
9. Абдурахимова Д.А. Маколлар дарсини ўтиш // Бошлангич таълим. 2002. №3. Б.21-22.